



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 21-noyabr, seshanba,
138 (23.857)-son

**KUN
HIKMATI**

Muruvvat
ko'rsatishdagi
adolatsizlik
boqimandalarni
ko'paytiradi

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz



VATAN BAYROG'I — TINCHLIK MAYOG'I

18-noyabr kuni Samarqandda O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilinganligining 32 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar bo'lib o'tdi.

Tadbir Registondan boshlandi. Maydon markazida harbiylar yordamida 20x40 metr o'lchamdagi bayroq yoyildi. Uning atrofini qo'llarida tug' tutgan yoshlar o'rab oldi va o'ziga xos manzara hosil qilindi. Buni mahalliy va xorijiy sayyohlar katta qiziqish bilan kuzatib turdi.

- Samarqand maftunkor shahar, - deydi fransiya-lik sayyoh Kristofer Gift. - Ayniqsa, Registon ansambli. Bugun bu maydon yanada chiroy o'chgan. Aynan mamlakatimiz bayrog'i qabul qilingan kun arafasida O'zbekistonda mehmon bo'lib turganimdan xursandman. Bayramda ishtirok etib, chiroyli bayroqlarni ko'targan o'zbek yoshlari bilan suratga tushdik. O'zimga esdalik uchun videotasvirga ham o'lyapman.

Katta bayroqni ko'targan harbiylar, velosipedli yoshlar, ichki ishlar va milliy gvardiya boshqarmasi otliq va motosikl otryadlari, texnika vositalari Registondan Ko'ksaroy maydoni tomon harakatlandi.

Bayram mazkur maydondagi ulkan bayroq ostida madaniy-ma'rifiy tadbir bilan davom etdi. Tadbirda shoir va yozuvchilar hamda taniqli san'atkorlarning chiqishlarida Vatanimiz bayrog'i madh etildi. Unda viloyat hokimi o'rinbosari Xurshid Ochilov ishtirok etdi.

To'lqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).



SAZAG'ONDA YANA BIR QO'SHMA KORXONA OCHILDI

“Urgut” erkin iqtisodiy zonasining Sazag'on massivida “Shelkovo Agroxim - O'zbekiston” qo'shma korxonasi o'z simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalari ishlab chiqaruvchi zavodi ishga tushdi.

Korxonaning ochilish marosimida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov, Rossiya davlati “Shelkovo Agroxim” korxonasi bosh direktori Salis Karakotov ishtirok etib, mazkur zavod mamlakatimiz qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan kimyoviy vositalar ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lishini ta'kidladi.

- Bugungi kunda dunyodagi iqlim o'zgarishlari, atrof-muhitning zararli gazlar hisobiga buzilib borayotgani oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, sifatli va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylantirdi, - deydi “Shelkovo agroxim” korxonasi bosh direktori Salis Karakotov. - Bunday sharoitda qishloq xo'jaligiga ilim-fan va zamonaviy texnologiyalarni uyg'un holda joriy etish taqozo etiladi. Mazkur korxonada ham yer unumdorligi va hosildorligini oshirish orqali sifatli va mo'ljali hosil yetishtirishga ko'maklashish maqsadida tashkil qilindi. Bu yerda



tayyorlanadigan vositalar ilim va innovatsiyaga asoslangan holda ishlab chiqariladi.

Umumiy qiymati 30 million AQSh dollari bo'lgan mazkur loyiha asosida 5 gektar maydonda ishlab chiqarish zavodi qurildi. Uchta asosiy va bitta yordamchi

sexda 50 turdagi kimyoviy vositalar ishlab chiqariladi. Sexlar Yevropa davlatlarida ishlab chiqarilgan so'nggi avlod texnologiyalari bilan jihozlangan bo'lib, asosiy yumushlar avtomatlashtirilgan texnikalar yordamida bajariladi.

- Qo'l mehnatidan kam foy-

TO'RTINCHI SEKTOR FAOLIYATIDA NARPAY TAJIRIBASI O'RGANILDI



ishini namunali tashkil etish bo'yicha ma'ruza qildi. Sektor faoliyatida Narpay tajribasi haqida ma'lumot berildi. Shuningdek, seminar ishtirokchilari bu yerda fuqarolarni qabul qilish uchun yaratilgan sharoitlar, ish jarayonlari hamda sektor a'zolari va

ularning faoliyatiga aloqador hujjatlar bilan tanishdilar. Seminar davomida shtab hududida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko'chatlar o'tqazildi.

Sulaymon MARDIYEV.

«O'ZBEKISTON - 2030» STRATEGIYASIDA

Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish maqsadida:

- bolalarni maktabgacha ta'lim va tayyorlov guruhilari bilan to'liq qamrab olish;
- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish;
- 100 foiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarini toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlash;
- o'lis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bepul avtobuslarni yo'lga qo'yish;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarini toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan to'liq ta'minlash;
- 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish;
- yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1000 ta multimedia dasturlarini yaratish;
- ta'lim tashkilotlariga har yili 500 nafar «til egalari» bo'lgan xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunarlariga o'rgatish kurslarini joriy etish;
- Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablarning ta'lim metodikasini barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlariga joriy qilish belgilangan.



“YANGI NAFAS”

ommaviy yugurish musobaqasida
pastdarg'omlik sportchilar g'olib bo'ldi

Samarqanddagi “Buyuk ipak yo'li” xalqaro turizm markazida O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganining 32 yilligi munosabati bilan “Bir Vatanda, bir vaqtda, bir masofaga, bir maqsadda birga yuguramiz!” shiori ostida “Yangi nafas” ommaviy yugurish musobaqasi bo'lib o'tdi.

Musobaqaning ochilish marosimida viloyat hokimining o'rinbosari R.Qobilov ishtirok etib, ushbu musobaqa xalqaro maqomga ega bo'lib borayotgani va ommaviy sportni rivojlantirishga xizmat qilayotganini ta'kidladi.

Marofonda yetti ming nafardan ziyod ishtirokchi 5 kilometr masofani bosib o'tdi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, erkaklar o'rtasidagi bahsda birinchi va uchinchi o'rinlarni pastdarg'omlik sportchilar Alisher Ahmatillayev va Alisher Saparov qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rin Samarqand shahridan Buyud Muhitdinovga nasib etdi.

Qizlar bahsida marra chizig'ini pastdarg'omlik sport-

chilar Kamola Ablayeva, Farangiz Olimova hamda Elnoza Mahmaochilovalar birin-ketin bosib o'tdi.

Pastdarg'omlik yigit-qizlar “Yangi nafas” ommaviy yugurish musobaqasining o'tgan yili va joriy yilda tashkil etilgan bahslarida ketma-ket g'oliblikni qo'lga kiritib kelmoqda.

Marofonda “Eng faol ishtirokchi”, “Eng yosh ishtirokchi” va “Eng yoshi katta ishtirokchi” nominatsiyalari bo'yicha hamda nogironligi bo'lgan fuqarolar o'rtasida ham g'oliblar aniqlandi.

G'olib va sovrindorlar diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

F.RO'ZIBOYEV.

Viloyat hokimligi
axborot xizmati.

SOLIQ IMTIYOZLARI TUFAYLI

zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari 12 foiz arzonga tushadi

Mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lamini va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Qiyin ahvolda tushib qolgan oilalarni kambag'allikdan olib chiqish uchun zarur choralar ko'rilmoqda.

Xususan, bunday oilalarga zarur oziq ovqat mahsulotlarini xarid qilishlari uchun ayrim soliq imtiyozlari joriy qilindi. Prezidentimizning 2023-yil 5-apreldagi tegishli qaroriga ko'ra, 1-maydan "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan jismoniy shaxslar chakana savdo obyektlaridan qo'y, parranda va mol go'shti, tuxum va o'simlik yog'i sotib olinganda va ushbu xaridni soliq organlarining maxsus mobil ilovasida xarid chekining fiskal belgisini matritsali shtrix kod yordamida skanerlash orqali ro'yxatdan o'tkazganda, ularning bank kartalariga har oy yakuni bilan xarid summasining 1 foizi miqdoridagi to'lov (keshbek) o'rniga 12 foiz qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) qaytariladi.

Shu o'rinda haqli savol tug'ilishi tabiiy: xo'sh, QQSni qanday qilib qaytarib olish mumkin?

Uni qaytarib olish uchun "Ijtimoiy himoya yagona reestri"dagi iste'molchi Soliq mobil ilovasini yuklab olib, FACE ID orqali ro'yxatdan o'tishi hamda ilovada xarid chekining QR-kodini skaner qilishi lozim. Qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishda sotib olingan mahsulot QQS qaytariladigan mahsulotlar ro'yxatiga kirganligi, xaridor "Ijtimoiy himoya yagona reestri"da ekanligi hamda tadbirkor qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tganligi inobatga olinadi.

Reestrdagi iste'molchi QQS qaytariladigan mahsulotlar bilan birga boshqa turdagi mahsulotlarni xarid qilib, chekni ro'yxatdan o'tkazganda QQS qaytariladigan mahsulotlar uchun 12 foiz, boshqa turdagi mahsulotlar uchun 1 foiz keshbekka ega bo'ladi. QQS to'lovchisi bo'lmagan tadbirkorlik subyektidan qo'shilgan qiymat solig'i qaytariladigan mahsulotlar sotib olinganda 1 foiz keshbek qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i summasi chek ro'yxatdan o'tkazilgan oydan keyingi o'nyning 25 sanasidan so'ng Soliq mobil ilovasi orqali to'lab beriladi. Hozirgi kunga qadar 84714 nafar iste'molchiga 3 milliard 652 million so'mdan ortiq ijtimoiy to'lov to'lab berildi.

Ammo aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash uchun yaratilgan bunday shart-sharoitdan noto'g'ri foydalanish, birovning haqi evaziga daromad olish istagida bo'lgan fuqarolar ham uchrashi kishini o'ylantiradi, mushohadaga chorlaydi.

Masalan, bir fuqaro qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish maqsadida xarid summasi 650 million so'mlik, boshqa bir fuqaro esa 481 million so'mlik chekni Soliq mobil ilovasida ro'yxatdan o'tkazgan. Bu esa kam ta'minlangan aholiga ijtimoiy to'lov berish mohiyatiga ziddir. Chunki "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kam ta'minlangan, deb e'tirof etilgan oilalar kiritiladi hamda bunday e'tirof etish mezonini sifatida minimal iste'mol xarajatlari asos qilib olingan.

Qayd etish joizki, ijtimoiy nafaqalar va to'lovlarining tayinlanish mexanizmlarini takomillashtirishdan asosiy maqsad - ushbu turdagi davlat yordamini maqsadli sarflanishi, ya'ni nafaqa haqiqatdan ham muhtojlarga berilishini ta'minlashdir. Ehtiyojmand oilalarga qo'shimcha yordam sifatida joriy qilingan keshbek mexanizmidan hozirgacha qariyb 100 ming bor foydalanilgan.

Sherbek BO'RONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Iqtisodiy adabiyotlarda hududlarni rivojlantirishning turli xil yondashuvlari mavjud. Bu borada hududlar rivojlantirishda oilaviy tadbirkorlikning mahallabay yondashuvi imkoniyatlarini baholash ko'rsatkichlari taklif etilgan. Biz ham Kattaqo'rg'on tumani misolida o'rgangan tadqiqotda hududlar rivojlanishida oilaviy tadbirkorlikning rolini "mahallabay" yondashuvda baholadik.

O'rganilgan hududda mahallalardagi oilalar soni 37 mingdan ortiqni va oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar 27 mingni tashkil etdi.

Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishini "sektorbay" va "mahallabay" yondashuvda baholash metodikasi har bir mahallani oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish darajasiga ko'ra toifalash imkonini beradi.

Bunda mahalladagi oilalarni qamrab olish darajasi asosiy mezon sifatida qaraladi. Shunga ko'ra, yuqori (20 va undan yuqori) - "yashil", o'rta (10-19 foiz) - "sariq" va past (0 dan 9 foizgacha) - "qizil" toifadagi mahalla (sektor) ga toifalash tavsiya etildi.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida Kattaqo'rg'on tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida oilaviy tadbirkorlikning roli 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra baholandi. Tumanidagi 69 ta mahallada oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish darajasi bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, eng yuqori darajada rivojlangan mahallalar 1-sektorda 5 ta, 2-sektorda 3 ta, 3-sektorda 11 ta bo'lib, jami tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi oilalarning 71,4 foizini tashkil etadi.

O'rta darajada rivojlangan mahallalarning ulushi esa 12,9 foiz. Yuqoridagilardan kelib chiqib, oilaviy tadbirkorlikning tuman mahallalarini rivojlantirishdagi o'rini ham baholash mumkin.

Kattaqo'rg'on tumanida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishiga "sektorbay" va "mahallabay" yondashuvga ko'ra tasnifi shuni ko'rsatmoqdaki, mahalla (sektor) lar kesimida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat tomonidan ajratilayotgan subsidiyalarning hajmini "yashil" - 5



OILAVIY TADBIRKORLIK

IQTISODIY FAROVONLIKNING QISQA YO'LI

foiz, "sariq" - 15 foiz va "qizil" toifadagi mahallalarga - 80 foizgacha nisbatda ta'baqalashtirilgan holda ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tuman oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha viloyatda to'rtinchi o'rindagi, rivojlanish tasnifiga ko'ra, yuqori darajadagi "yashil" toifaga xos hudud hisoblanadi. Ushbu hududda xizmatlar sohasining axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi faoliyat yo'nalishlarida oilaviy tadbirkorlik faoliyati deyarli yo'lga qo'yilmagan.

Mamlakatimizda joriy yil 1-iyundan "20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutaxassis" dasturi amalga oshirilmoqda. Dasturga 2023-2024-yillarda jami 1 milliard dollar ajratiladi. Unda ishtirok etadigan tadbirkorlarga alohida imtiyozlar beriladi.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 10-may kuni yig'ilishda kambag'allikni qisqartirish va bandlikni oshirish chora-tadbirlari

taqdimoti o'tkazildi. Yig'ilishda 2023-yilda oilaviy tadbirkorlikka 13 trillion so'm kredit va 1,5 trillion so'm subsidiyalarning ajratilishi, kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash bo'yicha 37 turdagi subsidiyalarning mavjudligi ta'kidlandi. Shu bilan birga, ularni ajratish shartlari oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, loyihaning o'zini oqlash muddatidan qat'i nazar, barcha uchun deyarli bir xil ekanligi, shu bois kredit va subsidiyalarni har bir kambag'al oilaga alohida yondashuv asosida taqdim etish taklifi bildirildi. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha Xitoy tajribasi namuna qilib olindi. Xitoy tajribasi asosida har bir viloyatda kamida bittadan tumanni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha alohida dastur amalga oshirilishi belgilandi. Shunga muvofiq, Kattaqo'rg'on tumanida ham Xitoy tajribasi asosida aholini kambag'allikdan chiqarish va tadbirkorlikka o'rgatish tizimi joriy etilishi belgilandi. Xitoy bu sohada asosan har bir oilaning daromadini oshi-

Birinchi marotaba sudlanayotganlar javobgarlikdan ozod qilinadi

"O'zbekiston - 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvi tashkil etishdir. O'tgan davrda ham bu borada qator ishlar amalga oshirilgan edi. Xo'sh, yangi vazifalar nimalardan iborat bo'ladi?

Aytish joizki, Strategiyaning mazkur yo'nalishi bo'yicha 16 ta maqsad belgilangan va ularning aksariyati bevosita mamlakatimizda sud-huquq sohasini yanada isloh etish bilan bog'liq.

Jumladan, hujjat bilan jamiyatimizda Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini, inson huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan sud nazoratini o'rnatish hamda ma'muriy adliya tizimini yanada rivojlantirish vazifalari belgilangan. Shuningdek, sud hokimiyatining mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta'minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish, buning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari sifatida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash amaliyotini 2 barabarga kamaytirish hamda garov va boshqa muqobil ehtiyot choralarini ulushini 2 barabar oshirish, ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash amaliyotini 30 foizdan 20 foizga tushirish nazarda tutilgan.



Jarayonda sudlar hamda tergov organlari faoliyatida ayrim protsessual harakatlarni masofadan turib amalga oshirish imkoniyatlarini kamida 2 barabarga oshirilib, yarashuvga tushadigan ishlar bo'yicha jabrlanuvchining iltimosiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atmasdan sud tartibida tugatish amaliyoti joriy qilinadi. 2024-yil yakuniga qadar qonunda belgilangan asoslarda tezkor-qidiruv va tergov harakatlarga sanksiya berish masalasini alohida sudyalarda tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqish tartibi joriy etiladi. 1-yanvardan esa birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxsni, agar u sud maslahatxonaga kirguniga qadar soliqlar va yig'imlar, shu jumladan, penyalari va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararining o'rini to'liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilinishi amaliyotini qo'llash belgilangan.

Bir so'z bilan aytganda, sohada katta islohotlar davri boshlandi. Bunday ko'zlangan maqsad aniq - odamlarning adolatga, sudga bo'lgan ishonchini oshirish, ularni rozi qilish.

Bekzod BOBOQULOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi sudyasi.

Past Darg'om tumanining Mevali massividagi Baroqsoy mekliglariga tutash dalaning pastki qismida "Merkuriy yulduzlari" fermer xo'jaligi joylashgan. Xo'jalik tasarrufidagi 46,1 gektar maydonda asosan, paxta va g'alla yetishtiriladi. 17 gektar sug'oriladigan maydonga 10-15 kilometrlik qir, tepaliklardan aylantirib suv keltiriladi.



- Joriy yilda 10 gektar g'alladan xarajatlardan tashqari 50 million so'm sof foyda oldik, - deydi xo'jalik boshlig'i Kamolidin Beknazarov. - Tajriba uchun 7 gektar lalmi maydonda g'o'za parvarishladik. Lalmikor yer bo'lishiga qararasdan, hosildorlik 30 sentnerga yetdi. G'alla rejasining oshirish bajarilgan qismi hisobidan ishchilarga 3 tonnadan bug'doy berildi.

Xo'jalik a'zolari esa qishloqda maosh muhim emasligini bildirishdi. Asosiy daromad chorva, dehqonchilikdan. G'alladan keyin chorvaga kerakli xashak, ro'zg'or uchun oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiriladi. Qolaversa, yil yakuni bilan fermer har bir oilaga o'z hisobidan qo'y-qo'zi ajratadi. Bularning bari pulga chaqilsa, daromad noliyidigan emas.

Ekinlardan sal narida lalmikor yerda nihollar ko'zga tashlanadi. 1100 tup "Gigant Samarqand" navli tok ko'chati ekilibdi. Tok qatorlariga yondosh tizilgan 1200 tup tok chati parvarishiga ham

e'tibor nihollar rivojidan ko'rinib turibdi. 50 sotixcha joyda tiklangan bino 5000 ta tovuq boqish uchun mo'ljallangan. Pastqamlikda temir va yog'och tayanchlar o'rnatilib, ustki qismiga temir to'sinlar payvandlanayotgan 50 sotix maydondagi issiqxonaga ham qishda mahsulot yetishtirishga deyarli taxt. Yana shuncha yerda molxona qurilishi ham tugallanish arafasida.

- 10-12 yildan buyon shu yerda ishlaymiz, - deya so'zida davom etadi K.Beknazarov. - Shu vaqtgacha tuzgan rejalarimizni amalga oshirish uchun endi sharoit ham, imkon ham yetarli. Keyingi yildan xo'jalik tarmog'ini yana 5-6 yo'nalishga ko'paytirish niyatidamiz. Yirik shoxli qoramol, 100-150 bosh qo'y-qo'zi parvarishlashga tayyor bo'lgan. Parrandachilik ortidan xazina topayotganlarga havas bilan tovuqxonaga ham qukdik. Cho'lquvarlar endi ekin maydonlarini zamonaviy texnologiyalar asosida sug'orishni yo'lga qo'yishmoqchi.

Qiyomjon ZIYOTOV.

Toyloq tumani Baxshitepa mahallasida 5 ming nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. Mahalla "Ipk yo'li" xalqaro turizm markazi, "Boqiy shahar" majmuasi hamda viloyatning nufuzli ishlab chiqarish korxonalariga yaqin hududda joylashganligi, shuningdek, bu yerda tadbirkorlik, hunarmandchilik va dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyatlarini yaxshi ekanligi uchun ham aholi farovon hayot kechiradi.

- Parrandachilik va asalarichilik mahallamizning drayveri hisoblanadi, - deydi hokim yordamchisi Farruh Hamdamov. - Bu yerda ishga kelganimga 3 oy bo'ldi. Odamlari samimiy, ishbilarmon, mehnatsevar ekan. Qisqa vaqt ichida 16 nafar fuqaroga imtiyozli kredit ajratilishiga ko'maklashdim. Ular qandolatchilik, tikuvchilik, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa tadbirkorlik faoli-

Baxshitepada hech kim bekor o'tirmaydi



yati turlari bilan shug'ullanmoqda. Bu mahallada boqimandlik kayfiyatidagi fuqarolarning yo'qligi meni xursand qiladi. Ahamiyatli jihati, tadbirkorlik faoliyatini boshlaganlar orasida nogironligi bor fuqarolar ham mavjud.

Shu mahallada yashovchi, eshitishida nuqsoni bor fuqaro Qodirjon Muxtorov ro'zg'origa qo'shimcha daromad keltirish maqsadida tinim bilmay mehnat qiladi. U avvallari eski mashinasida yo'lovchi tashish

To'liq SIDDIQOV.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan 2021-yilda 33 loyiha 995 million so'm, 2022-yilda 17 loyiha va 11 ta milliy madaniy markazga 1 milliard 264 million so'm mablag' ajratilgan.

NNTlar DAVLAT GRANTI mablag'larini maqsadli ishlatyaptimi?

Ushbu davlat granti va subsidiyasi mablag'larini maqsadli va samarali ishlatish yuzasidan xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi ishchi guruhi tomonidan joylarda monitoring o'tkazildi.

Dastlab Urgut tumani va Samarqand shahrida faoliyat ko'rsatayotgan NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyati o'rganildi.

2021-yilda Urgut tumanidagi Ipakli mahallasiga kashta tikish amaliy san'atining qadimiy sohalari mahalla xotin-qizlari orqali rivojlantirish loyihasi uchun 30 million so'm mablag' ajratilgan. Mahalla raisi Hazrat Haydarovning aytishicha, ushbu mablag'ga 7 ta tikuv mashinasi va kerakli jihozlar xarid qilinib, mahalladagi ijtimoiy daftarlarda turadigan va ishsiz xotin-qizlarga kashtado'zlik va kiyim-kechak tikish o'rgatilmog'ida.

Tumanning Sovg'on mahallasida elektron hamda turli adabiyotlarni o'zida jamlagan Mahalla va yoshlar kutubxonasi tashkil etish loyihasiga 50 million so'm grant ajratilgan.

50 million so'm grant evaziga mahalla markazida ko'rkamgina kutubxona ochdik, - deydi Sovg'on mahallasi yoshlar yetakchisi Aziz Boymahmatov. - Kutubxonaga kerakli adabiyotlar, televizor, kompyuter va stol-stul xarid qildik. Hozir yer yerdahamda yoshlarining bo'sh vaqti mazmunli o'tyapti.

Tumanning Sariqtepa mahallasida 30 million so'm grant g'olibi bo'lgan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning bandligini ta'minlash bo'yicha "Dil ba yoru, dast ba kor" loyihasi hamda Mustaqillik mahallasida 50 million so'mlik grant mablag'i hisobiga "Yangi O'zbekistonda munosib hayot" nomli nogironligi bo'lgan shaxslar va og'ir ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarni hayotga moslashtirish markazi faoliyati yo'lga qo'yilib, davlat granti mablag'laridan samarali foydalanilgan.

Monitoring davomida 2021-yilgi grant tanlovida g'olib bo'lib, 31 million so'mni qo'lga kiritgan SOS O'zbekiston bolalar mahallasi Samarqand filialida "Termo-issiqxona va jonli burchakni tashkil qilish" loyihasi ham ko'zdan kechirildi.

Loyihaning asosiy maqsadi ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni tabiatni sevishga, hayvonlarni boqishga o'rgatish va mustaqil hayotga tayyorlash, - deydi SOS bolalar mahallasi Samarqand filiali direktori Dilrabo Davronova. - Ayni paytda bu yerda 70 nafar bola tarbiyalanmog'ida. Grant va homiylik mablag'larini hisobidan mahalla hududida issiqxona tashkil etildi. Qo'y, mol, quyon va tovuqlar boqish yo'lga qo'yilib, har bir oilaga bo'lib berildi.

Keyingi manzil 50 million so'mlik grant mablag'i g'oliblari, Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashi hamda Pensionerlar uyushmasining viloyat kengashi bo'ldi.

Kengash raisi Begzod Rahimovning ta'kidlashicha, ajratilgan mablag' "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni haydovchilikka o'qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga yo'naltirilgan va joriy yilda ijtimoiy daftardagi 423 nafar yosh grant mablag'larini hisobidan o'qitilgan. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy-huquqiy ko'nikmalarini oshirish maqsadida seminar-treninglar tashkil etilgan.

"Sog'lom kelajak" loyihasi uchun 50 million so'm grant mablag'i ajratilgan, - deydi Pensionerlar uyushmasining viloyat kengashi raisi Hoshim Vafoyev. - Grant mablag'larini hisobidan Samarqand shahri Do'stlik ko'chasidagi tashlandiq joyni obodonlashtirib, nuroniyalar choyxonasiga aylantirdik. Shuningdek, bu yerda nuroniyalarning sport bilan shug'ullanishini uchun ham sharoit yaratilib, zamonaviy sport jihozlari bilan ta'minlandi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Davlatimiz rahbari shu yilning 10-11-avgust kunlari Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida joylarda jinoyatchilikning oldini olish va bu illatga qarshi kurashish, hududlarni jinoyatdan xoli maskanlarga aylantirishda huquq-tartibot idoralari bilan birga jamoatchilik ham faol ishtirok etishi zarurligini ta'kidlagan edi. Xususan, bu borada aholi bilan yaqin hamkorlikda ishlovchi jamoat tashkilotlarining o'z o'rnini bo'lishi zarurligi qayd etilgandi.

Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan viloyatimizda ham zarur chora-tadbirlar ko'rilmog'ida. Bu jarayonda, ayniqsa, ayollar va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmog'ida.

Jumladan, viloyatni xotin-qizlar jinoyatchiligidan xoli hududga aylantirish yuzasidan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi asosida kasaba uyushmalari, ichki ishlar va boshqa mas'ul idora, tashkilotlar hamkorligida keng qamrovli o'rganish ishlari olib borildi. Natijada turli hududlardan 4911 nafar muammosi bor xotin-qiz ajratib olindi.

Tan olishimiz kerak, viloyatda xotin-qizlar o'rtasidagi jinoyatlar soni kam emas. Ertamiz egalarni dunyoga keltiruvchi, tarbiyalovchi va nozik xilqat vakillarining og'ir jinoyatlarga qo'l urishi nafaqat davlatning, balki

Ularni jinoyatchi deyish juda og'ir

butun jamiyatning muammosi, ta'bir joiz bo'lsa, falokatli hisoblanadi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: ularni qaysi omillar jinoyatga yetaklamog'ida? Shubhasiz, bugun bunga sabablarni ko'plab sanash mumkin. Biroq tajriba shuni ko'rsatmog'ida, ular asosan bandligi ta'minlanmaganligi, oson daromad topishga urinishi, vaqtini maqsadli o'tkazmasligi oqibatida shu yo'lga kirib qoladi. O'rganish yakunlarining tahlili ham buni isbotladi. Jumladan, muammosi bor 4 mingga yaqin xotin-qizdan 202 nafar doimiy ish joyga muhtojligi aniqlanib, o'tgan vaqtda ularning 11 nafari ish bilan ta'minlandi. Shuningdek, imtiyozli kredit olish istagini bildirgan 77 nafar xotin-qizlarning 7 nafari, ish boshlashi uchun zarur asbob-uskunalariga ehtiyoji bo'lgan 164 nafari 3 nafari zarur texnikalar berildi. E'tiborlisi, ular orasida kasb-hunar egallash istagini bildirganlar ham oz emas - 174 nafarni tashkil etdi.

Muammosi bor xotin-qizlar orasida ijtimoiy himoyaga muhtojlar ham oz emas. O'rganish davomida 51 nafar fuqaroning uy-joyi ta'mirlanib ma'lum bo'ldi. 412 nafari maqaddiy yordam ajratish, 18 nafari o'quv-kontrakt pullarini to'lab berish bo'yicha vazifalar belgilab olindi. 847 nafari salomatligidagi muammolar sababli tibbiy nazoratga olinib, hozirgacha ularning 116 nafari zarur tibbiy yordam ko'rsatildi.

Aytish joizki, bunday xotin-qizlar orasida hayotning

og'ir sinovlarini boshidan o'tkazgan, tazyiq va jismoniy tajovuzlarga uchraganlari ko'p. Xususan, tahlil jarayonida ro'yxatdagilarning 1800 nafari psixologik, 929 nafari huquqiy ko'mak kerakligi ma'lum bo'ldi. Shu kunlarda malakali mutaxassislar ularni qiynayotgan muammolarni bartaraf etib, sog'lom hayotga qaytarish bo'yicha ishlashmog'ida.

Bu faqat raqamlar. Muammoni hal qilish uchun faqat shuning o'zi yetarli emas, albatta. Bunga huquqbuzarlik va jinoyatchilik sodir etilishining tub sabablarini aniqlash, ularga turkib bo'lgan omillarni yo'qotish orqali erishiladi. Ayni maqsadda ishchi guruhlar tomonidan joylardagi jinoyatchilik ko'paygan, "qizil" toifaga kiritilgan mahallalar o'rganilib, sabab va oqibat tahlillari olib borilmog'ida. Shuningdek, mahalla va qishloqlarda otinoyilar, imom-xatib hamda mahallaning keksa-nuroniyalari ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot tadbirlarini o'tkazish, jazoni ijro etish muassasidan qaytganlar, oilaviy zo'ravonlikka uchraganlar bilan uzoq muddatli profilaktik tadbirlarni o'tkazish singari o'nab yo'nalishlarda muhim vazifalar ijrosi ta'minlanayotib.

Viloyatda ushbu yo'nalishdagi tadbirlar davom etmog'ida.

Tolib ESHMONOV,
viloyat kasaba uyushmalari kengashi apparati
yuriskonsulti.



Xayolimda doim bir o'y yuradi: Orol fojiasi aslida yetmish yil mobaynida boshimizga tushgan ko'rguliklarning bir timsoli, xolos. Zotan, dengizimiz qurigani kabi ma'naviyatimiz ham g'ariblashdi, axloqimizga putur yetdi, iqtisodiyotimiz xarob bo'ldi.

To'lepbegov QAIPBERGENOV,
O'zbekiston Qahramoni,
O'zbekiston xalq yozuvchisi.

Orol dengizining nega bunday nomlangani barchamiz uchun qiziq bo'lsa kerak. O'tmish rivoyatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu nom qanday kelib chiqqanini bilib olishimiz mumkin. Orol bo'yidagi bir ovulda tug'ilgan taniqli adibga bolaligida onasi shunday ertak aytib bergan ekan: "Mashriq degan tomondan Pomir degan ulkan, baland tog' bor ekan. U qalin qor, muzliklar bilan qoplangan ekan. Tog' yonbag'ridagi bir qishloqda Orol ismli bola onasi bilan yasharkan. U yoshligidan tog'ning muzliklari bilan yastanib yotgan eng yuqori cho'qqisiga chiqishni niyat qilgan ekan. Ulg'ayib, katta bo'lgach, bu niyatiga yetibdi. Cho'qqi shunday baland ekaniki, yigit o'sha joydan kun botish tomonga qarabdi. Ko'z oldida jilvalangan to'lqinlar ko'kka sapchiyotgan, turli-tuman qushlar charx urib uchayotgan moviy dengiz namoyon bo'libdi. Yigit dengiz shu tog'lardan, oyog'i ostidagi qor muzliklaridan borayotgan suv bilan ta'minlanayotganini his qilibdi. Shu-shu tez-tez tog' cho'qqisiga ko'tarilib, dengizni tomosha qiladigan bo'libdi. Keyinchalik dengiz Orol degan nom olibdi".

Bu hikoyani eshitgan insonning ko'z o'ngida moviy dengiz mavjlanadi. Afsuski, bir paytlar to'lqinlanib oqqan moviy dengiz

bugungi kunda ayanchli ahvolga kelib qolgan. Orol fojiasi, uning oqibatlari bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Zotan, bir avlod ko'z o'ngida bir vaqtlar to'lib turgan dengiz butunlay qurib, bepoyon sahroga aylanib qolgan.

Achinarlisi, Orol dengizining qurishi insoniyatga katta muammolar olib kelmog'ida. Masalan, statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, Orol suvi keyingi 50 yil ichida 8 marta kamayib, uning qurigan hududida 5 million gektardan ziyod qumli, turli sahro paydo bo'lgan. Dengizning qurish hududidan har yili 75 million tonnadan ortiq chang va tuz havoga ko'tarilmog'ida. Buning oqibatida Orol bo'yidagi ekin yerlarining meliorativ holati yomonlashdi. Aholi o'rtasida kamqonlik, onkologik kasalliklar ko'paymog'ida.

Taniqli qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov dengizning achdchi qismati haqida shunday degan edi: "Orol dengizi muammosi fojiaiy muammoga aylanib ulgurdi. Orol dengizi fojiasiga asosan inson aybdordir. Katta ekologik halokat ro'y berdi". Haqiqatdan ham bu barchamiz uchun fojiodir. Eng yomoni, shuncha narsani bila turib, unga befarq bo'lishdir.

Samarqand davlat chet tillari instituti yoshlari Orol dengizi muammolariga befarq emasiz, degan maqsadda u yerdagi holat bilan yaqindan tanishish uchun "Yoshlar Orolni asraydi" shiori ostida Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq shahriga yo'l oldi. Ular Orol dengizining bugungi kundagi ayanchli ahvolini o'z ko'zlarini bilan ko'rishdi. To'g'ri, biz har kun ijtimoiy tarmoqlar orqali dengizning holati haqida eshityapimiz, lekin uni o'z ko'zingiz bilan ko'rsangiz, haqiqatda achinarli ahvolga kelib qolgan va u yerdagi aholi qanchalar qiynalayotganini tushunib yetasiz.

Sayohat davomida uni bejizga "Kemalar qabristoni" deb atashmasligini

ham tushunib yetdik. Bir paytlar to'lib-toshib mavj urayotgan dengiz bugungi kunda tuz bilan to'lgan sahroga aylanib qolganini ko'rib, nima deyishni ham bilmay qoldik.

Orolning bugungi kundagi holati aholi, ya'ni yoshu qariga juda yomon ta'sir ko'rsatmog'ida va ko'plab kasalliklarga sabab bo'lyapti. Ular ba'zi shaharlardagidek toza havodan nafas olib, toza suv ichayotgani yo'q. Biz o'zimiz uchun bunday hayotni tasavvur ham qilolmaymiz, lekin ba'zi insonlar yashashga majbur bo'lyapti, o'z farzandlarini shunday muhitda katta qilishyapti.

Orol dengizining bugungi ko'rinishi barchamiz uchun bir dars bo'ldi. Bu orqali biz suvni isrof qilmaslikni, tabiatni asrab-avaylashni tushunib yetdik. Endi bu masalada ehtiyoj bo'lishimiz shart. Zero, ekologik tarbiyani kuchaytirish, yosh avlodning ona tabiatga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirish, atrof-muhitni toza saqlash, suvni tejash jannatmonand diyorumizning yanada ko'rkam, obod va qudratli bo'lishi garovidir. Konstitutsiyamizning 55-moddasida ham shunday deyilgan: "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simliklar va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralari umummiy boyligidir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir". Shunday ekan, biz ona tabiatimizning har bir qarich yerini asrab-avaylashimiz lozim. Zero, ona tabiatga hech kim befarq bo'lmasligi shart.

Umuman olganda, bu haqda yozishdan asosiy maqsadimiz unutilgan Orolni estalish edi. To'g'ri, butun dunyo hech nima qilolmayapti, biz nima ham qila olardik, deyishimiz mumkin. Lekin oddiygina suvni tejab ishlatish ham yordam bo'lishi mumkin. Unutmang, nimani xor qilsangiz, shunga zor bo'lasiz!

Ro'zaxon MATQURBONOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

16-20-noyabr kunlari Sirdaryo viloyatida sportning uch kurash turi bo'yicha erkaklar va ayollar o'rtasida jahon chempionati o'tkazildi.

Oqdaryolik kurashchilar chempion



Unda 15 dan ziyod mamlakat kurashchilari bel-lashdi.

Musobaqada viloyatimizdan oqdaryolik sportchilar yurtimiz sharafini munosib himoya qildi.

72 kilogramm vazn toifasida Akmal Akramov tojikistonlik Xudoyor Rajabzodani mag'lub qilib, chempionlikni qo'lga kiritgan bo'lsa, 96 kilogramm vaznda Oqdaryo sport maktabi murabbiyi Anvar Xudoyqulov finalda eronlik Eysa Ravayega yutqazdi va kumush medalga sazovor bo'ldi.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Raximov Uktamga (2019-yil 6-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmog'ida. Shu munosabat bilan merosxo'rning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov

Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Saidmuradov Tursunmurodga (2011-yil 26-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmog'ida. Shu munosabat bilan merosxo'rning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdullayev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasida marhum Muqumova Anavarga (2002-yil 5-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk

uchun meros ishi ochilmog'ida. Shu munosabat bilan merosxo'rning Abdullaev Nodir Jamoliddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani U.Samiyev ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Muxamedov Abduxamid Zabiyevchga (2023-yil 30-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmog'ida. Shu munosabat bilan merosxo'rning Tursunov Suhrob Berdiqu-

lovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

BEKOR QILINADI

Shodiyeva Ro'zigu Alimardonovna va Shodiyeva Barno Alimardonovnalari o'rtasida Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 152-uy, 19-xonadon uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasidan 2021-yil 24-mayda tasdiqlanib, Ksh 035417 SA blankada tuzilgan, 202101841004556 raqam bilan reestrga kirit-

ilgan hadya shartnomasi va ushbu uying kadastr hujjatlari to'plami (Davlat kadastrlari palatasining Samarqand viloyat boshqarmasidan 2021-yil 28-mayda berilgan, kadastr raqami: 14:16:03:02:01:0452:0001:019) bekor qilinadi.

Samarqand davlat chet tillar instituti rektorati va kasaba uyushma qo'mitasi institut faxriy professori **Urol USMONOV**ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

Dolzarb mavzu

MUZEYGA QACHON BORGANSIZ?

Yoxud Sharq Ermitajining foydalanilmayotgan salohiyati haqida

Mazkur savol o'zini ziyoli sanaydigan aksariyat kishilarni ham shoshirib qo'yishi mumkin. Buning birinchi sababi, ko'pchilik muzeyga bolaligida borgan va aniq vaqtini eslay olmaydi, ikkinchidan, bunga berilgan javob kishining ma'naviy saviyasini ham oshkor qilib qo'yadi. Xalqimizning bebaho moddiy va ma'naviy boyliklarini ko'rmay, tanimay turib, ma'naviyatimiz, deya olmaymiz, axir.

Ayni masala haqida gap ketganda, aybni faqat odamlardan qidirish Tanganing ikki tarafi bo'lgani kabi muzeylarni ham bugungi kun talabiga to'liq javob beradi, deb bo'lmaydi. Ularning faoliyatini "jonlantiradigan" nimadir yetishmayotgandek. Balki ular joiz shaklda reklama qilinmayotganidir. Yoki menejmenti to'g'ri yo'lga qo'yilmagan. Xullas, aniq va noaniq sabablar bilan xalq va muzey o'rtasidagi ko'priki buzilmoqda. "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasi bosh muhofizi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori Mahmudxon Yunusov bilan suhbatimiz mazkur muammo va uni bartaraf etish choralarini haqida bo'ldi.

– **Mahmudxon aka, keling, avvalo, viloyatimizdagi muzeylarning imkoniyatlarini haqida to'xtalamiz. Ularga tashrif buyuruvchilar uchun qanday qulayliklar bor?**

– Samarqandda 11 ta muzey, 2 ta ko'rgazma bor. 7 ta muzey va 2 ta ko'rgazma Samarqand shahrida, Kattaqo'rg'on, Paxtachi, Ishtixon hamda Qo'shrabot tumanlarida bittadan muzey joylashgan. Ularda umumiy hisobda milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan 240 mingga yaqin ashyo saqlanadi. Tizimli ravishda yangilab boradigan ko'rgazmalar soni 20 tani tashkil etadi.

Aytish joizki, muzeylarning eshigi doimo ochiq. Bunday tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini kirib ko'rish tartibi hamda shartlari to'g'risida nizom"ga ko'ra, har yili 2-8-sentabr kunlari tashkilotlar tomonidan "Muzeylar haftaligi" doirasida aholi davlat muzeylariga bepul kiritilishi belgilangan. Shu nizomga muvofiq, haftaning seshanba va juma kunlari 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va ularga hamrohlik qiluvchi ota-onalar ham davlat muzeylariga bepul kiritiladi. Yangi tartib bilan joriy yilning 1-sentabridan

ular haftaning istalgan ish kunida muzeyga bepul kirishi mumkin va bu jarayonda hech qanday muammo yo'q.

– **Muzeylarga tashrif buyuruvchilarga har kuni soat 22:00 gacha xizmat ko'rsatish ham belgilangan edi...**

– Muzeylarda xizmatlar sohasini kengaytirishga qaratilgan shu

shirilgan ashyolar uchun javobgar hisoblanadi. Bu hali u bajaradigan ishning

yarmi ham emas. Albatta, muzeylar budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan xodim yollab, ishni mutanosib taqsimlashi mumkin. Ammo buning uchun budjetimiz o'z ixtiyorida bo'lishi kerak. Ma'lumki, Prezidentimizning 2021-yil 19-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan

muzey-qo'riqxonalar chiptalar sotilishidan tushgan pul mablag'ining 50 foiz miqdorini hamda moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berishdan tushgan mablag'ning 90 foiz miqdorini Madaniy meros jamg'armasiga o'tkazadi.

Endi qarang, biz budjetdan faqat shtatdagi xodimlar uchun oylik olamiz. Qolgan barcha xarajatlarni muzey ixtiyorida qoldirgan o'sha 50 foizdan qoplanishi kerak. Bunga binosi saqlash, hududni obodonlashtirish xarajatlari, kommunal to'lovlar, ko'rgazmalarni tashkil etish singari yuzlab tarmoqlarga bo'lingan chiqimlar kiradi. Indallosini aytganda, bugungi muzey-qo'riqxonalarda biror yangilik qilish uchun ortiqcha mablag' yo'q.

– **Ammo Samarqandda turizm yaxshi rivojlanayapti. Chipta sotish va obyektlarni ijaraga berishdan tushadigan mablag'ning muzeylarda qoladigan qismi ham kam bo'lmasligi kerak.**

– Bu holatda "Nomi ulug', supراسi quruq", degan maqol esimga tushadi. Sababi, buguni viloyatimizda "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasiga qarashli bo'lgan, aholi doimo gavjum bo'ladigan, turistlar kiradigan faqat 4 ta asosiy muzey obyekti bor. Bular - Mirzo Ulug'bek rasadxonasi, Afrosiyob muzeyi, Amir Temur jome masjidi hamda Amir Temur maqbarasi. Ular balki o'z xarajatlari qoplar, lekin bu butun viloyatning ko'rsatkichi emas. Shaxsan men muzeysunos sifatida viloyatimizdagi muzeylarga muzey-qo'riqxonaga maqomi berilishi to'g'rimi, degan savolni o'rtaga tashlagan edim. Qaysi ma'nodaki, agar bizga O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi va uning filiallari maqomi berilsa, biz qonunchilikka muvofiq Madaniy meros agentligiga daromadning faqat 10 foizini berib, qolganini faoliyatimizni rivojlantirishga yo'naltirishimiz mumkin bo'ladi. Yoki qonunchilikni qayta ko'rib chiqish lozim.

Hozirgi muzey 50 foiz daromadini berib, yana foydaga chiqadigan boy tashkilot emas. Ochig'i, 2021-yilning oxirida ayni muammo sababli budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan oylik oladigan 26 nafar xodimimizni o'z hisobidan ta'tilga chiqarishga majbur bo'lganmiz. Bu uyatli holat.

Hozir 54 nafar xodimga shu tartibda, ya'ni muzeining topgan pulidan oylik to'lanadi. Ularsiz muzeylar faoliyatini tashkil etib bo'lmaydi. Hattoki, yaqin-yaqingacha muzeylarni qo'riqlab kelgan Milliy gvardiya xodimlariga ham muzey hisobidan oylik to'langan. Endi umumlashtirib, muzeylarga kerakli xodimlarni shtat asosida, ya'ni budjetdan oylik oladigan qilib ishga olishimizga ruxsat berilmasa, topgan pulimizning 50 foizi jamg'armaga ket-sa, qolgan mablag' qilinayotgan xarajatlardan kam bo'lsa, tizimni rivojlantirish haqida gapirib bo'ladimi? Bu masala faqat Samarqandga tegishli emas, boshqa viloyatlarda ham vaziyat shunday.

– **Qonunchilikda muzeylarga mahalliy budjetdan mablag' ajratilishi amaliyoti ham bor. Bu imkoniyatdan foydalanayapsizlarmi?**

– Ayni tartib ham Prezidentning yuqorida qayd etilgan qarorida belgilangan. Faqat xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori bilan ajratilayotgan mablag' muzey fondini boyitish, oddiyroq qilib aytganda, xalqning qo'lidagi noyob, tarixiy, badiiy qiymatga ega ashyolarni sotib olish uchun ishlatilishi mumkin. Misol uchun, o'tgan yili Kengash tomonidan shu maqsad uchun 500 million so'm ajratilgan edi. Ushbu mablag' hisobidan miloddan avvalgi II asr va milodiy XIV asrga taalluqli 41 dona bronza oyna kolleksiyasi, Qoraxoniylar ibrohimi ibn Nasrning 180 dona kumush tangalari kolleksiyasi, Chig'atoy xonlari (Bayon-qulixon va Tarmashirin)ning 236 dona dinor va dirhamlari,

"Vatan tayanchi"

otryadlariga 25 ming nafar o'quvchi qabul qilindi



foizi miqdorida qo'shimcha ball shaklida imtiyozga ega bo'ladi. Tavsiyanoma uch yil mobaynida amal qiladi.

– Samarqanddagi maktablarda tahsil olayotgan 10-, 11-sinf o'quvchilarining 25 ming nafar iqtidorli o'g'il-qizlari "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati otryadlariga qabul qilingan, - deydi viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Husniddin Qobilov. – Bu o'quvchilar o'qovchi bo'lib, Vatanga sadoqati, o'qishi, intizomi va jismoniy ko'rsatkichlari bilan yoshlarga o'rnatilgan talablarga ham yuqori natijalarga erishishda ko'maklashib kelmoqda.

Joylarda o'quvchilar bilan ishlash maqsadida Mudofaa vazirligi, IIV, FVV, Milliy gvardiya, DXX, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi va O'zbekiston mudofaa vazirligi ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tizimida ish olib borilmoqda. Yil oxirigacha yana yetti ming nafar iqtidorli o'quvchini "Vatan tayanchi" otryadlariga qabul qilish rejalashtirilgan.

F.RO'ZIBOYEV.

jami 600 ga yaqin tarixiy va badiiy qiymatga ega ashyolar xarid qilindi. Bu yil Kengash yana 375 million so'm ajratdi. Aytish joizki, ayni amaliyot katta yutug'imiz bo'ldi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda chegaradan olib chiqib ketilmoqchi bo'lgan ko'plab qadimiy tangalar yoki boshqa tarixiy ashyolar bojxona xodimlari tomonidan ushlab qolingani haqida o'qiydiz, to'g'rimi? Bu qonunbuzarlikning ke- lib chiqish sababi nima? Albatta, muzeylarda mablag' yo'qligida. Fuqaro yoki kolleksionerlar qo'lidagi ashyolarni qayerdadir sotishi kerak. Shu bois ko'pchilik ularni xorijga olib chiqishga urinadi. Endi bu muammo qisman yechimini topdi. Qisman deyshimizga sabab hujjatda ayni maqsadga ajratiladigan mablag' mahalliy budjetning ishlatil-may qolgan qismidan ajratilishi ko'rsatilgan. Ya'ni, yilning to'rtinchi choragida. Bu vaqt juda kam. Shu bois mazkur holatni ham qayta ko'rib chiqish kerak.

– **Samarqand shahrida o'tkazilgan Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi doirasida Samarqandga "Madaniy turizmning xalqaro poytaxti" maqomini berish to'g'risida deklaratsiya qabul qilindi. Aytinch-i, biz bu maqom beradigan mas'uliyatga tayyormizmi?**

– Muzeylarimiz O'zbekiston madaniyatining xohlagan davrini ko'rsata oladi. O'zbekiston madaniyatini degani - bu Buyuk ipak yo'li davlatlari madaniyatini degani. Necha ming yillar davomida turli xalqlar, mamlakatlar bilan olib borilgan savdo-sotiq, aloqalar natijasida bizga ularning madaniyati, urf-odatlari ham kirib kelgan. Aynan shu O'zbekiston, xususan, Samarqandning "Madaniy turizmning xalqaro poytaxti" maqomiga to'la mosligini anglatadi.

Ikkinchi masala - bu uni qanday ko'rsatishimizda. Ilgari Samarqand muzeyini Sharq Ermitaji deyishgan. Biroq hozirgi davrda muzey jiddiy ishlohtlarni talab qiladi. Yuqorida aytilgan shtatlar muammosidan tashqari, muzeylarga zamon talabiga mos ulkan binolar ham kerak. Bunday tashqari, bizda muzeylarni boshqarishning aniq mexanizmi ham yo'q. Sohani ilm bilan emas, hisobotlar bilan boshqarishga harakat bo'lyapti. Avvalo muzeylarga ilmiy qaytarish kerak. Buning uchun ularga ilmiy tashkilot maqomi berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shunda bu dargohga butun dunyodan olimlar keladi. Ular tadqiqot o'tkazib, natijalarini jamoatchilikka yetkazadi, natijada muzeylarga tashrif buyuruvchilar ko'payadi, turizm rivojlanadi. Ishoning, bizda o'rganishga muhtoj va dunyo xalqlarining hayratini oshiradigan ashyolar yetarlicha.

Mana, masalan, biz yaqinda Parijga 6 metrlik Afrosiyob devori va boshqa shu davrga oid ashyolarni olib borib, namoyish qildik. U yerda ashyolarimizning katalogi chiqarildi. Bu parijliklarda shunchalar katta qiziqish uyg'otdiki, katalogning o'zi 4 marta qayta nashr qilinib, 40 ming nusxada sotildi. Ularga qolsa, birgina sosonylarda davriga oid kumush tangamizning o'zini alohida ko'rgazma qilgan bo'lishardi. Xo'sh, bizda qanday? Afsuski, bizda hatto butun boshli viloyatdagi birorta muzeyga ekskursion shtati ajratilmaydi. Ha, hozir muzeylarda rasmiy ishlaydigan ekskursionlar yo'q. Ayrim turistik firmalar yollagan ekskursionlar esa tariximizni bilmagani yetmagandek, uni buzib, yolg'on afsonalarni qo'shib ko'rsatishmoqda. Xullas, tizimni qayta ko'rib chiqishimiz hamda yuqorida aytganimdek, unga ilmiy qaytarishimiz kerak.

– **Samimiy suhbat uchun rahmat. Asqar BAROTOV suhbatlashdi.**

Mahallalarda 67 ta sport maydonchasi foydalanishga topshirildi

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 5-noyabrdagi "Yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va workout sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, aholini omamaviy sportga jalb qilish maqsadida viloyatdagi 16 tuman (shahar)dagi bittadan mahallada universal sport maydonchasi qurildi.

Mahalla yoshlari o'rtasida o'tkazib kelinayotgan "Besh tashabbus olimpiadasi"ning o'tgan yilgi respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlar mahallasiga 20 ta universal, 16 ta street workout va 15 ta workout maydonchalari qurilib, foydalanishga topshirildi.

Joriy yil "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalarining birinchi mavsumida 19 yo'nalishda 393 ming 134 nafar samarqandlik yosh mahalla, sektor, tuman (shahar) va viloyat bosqichlarida bellashib, 309 nafari respublika yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

"A" liga bahslarida birinchi o'rinni qo'lga kiritgan 11 ta mahallada universal sport maydonchasi, "B" ligada peshqadam bo'lgan 4 ta mahallada street workout va "S" ligada g'oliblikni egallagan 1 ta mahallada workout maydonchalari barpo etilishi belgilandi.

Jumladan, Paxtachi, Oqdaryo, Urgut tumanlarida ikkita-dan, Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Ishtixon, Qo'shrabot, Toyloq, Narpay, Past Darg'om va Jomboy tumanlarida bittadan sport maydonchalari quriladi. Hozirda 16 ta mahallada sport maydonchalarini qurish bo'yicha yer ajratilib, amaliy ishlar boshlandi.

Shuhrat RO'ZIYEV, viloyat yoshlar siyosati va sport boshqarmasi boshlig'i.



Sohani tushunmaydigan o'quvchilarda shuncha muhofiz nima ish bilan shug'ullanadi, degan savol tug'ilishi mumkin. Kezi kelganda aytish kerak, ularning ishi juda og'ir va murakkab. Birinchidan, har bir muhofiz ishga kirganida o'ziga topshirilayotgan ashyolarni qabul qilib olish dalolatnomasini tuzadi. Keyin ular kirim kitobiga, undan so'ng inventar kitobiga kiritiladi. Inventar kitobida muhofizning har bir ashyo ustida olib borgan izlanishi natijasi aks etishi kerak. Keyingi qadam, har bir ashyoga ilmiy tavsif varaqasi yoziladi. Yangi topshiriqqa ko'ra, endi barcha ashyolar elektron bazaga kiritilishi kerak. Qolaversa, muhofiz o'ziga top-

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 337 nusxada chop etildi. Buyurtma 630. Hajmi 2 bosma taqob, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

S.MARDIYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

